TALABALARGA DIVERGENT TAFAKKURNI MUAMMOLI O‘QITISHDA TARBIYANING AHAMIYATI

Radjapova Dilafruz Amanturdiyevna, Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
e-mail: dilafruzradjapova94@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish jarayonida muammoli o‘qitish metodlarining pedagogik va psixologik asoslari hamda tarbiya jarayonining ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Divergent tafakkur shaxsning kreativ, mustaqil va noodatiy yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi. Muammoli o‘qitish esa talabalarda bilimlarni mustaqil egallash, ijodkorlik va tashabbuskorlikni kuchaytiradi. Tarbiya esa ushbu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, shaxsiy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada texnologiya ta’limi misolida talabalarda divergent tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari keng tahlil qilingan.

Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish jarayonida muammoli o‘qitishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari, shuningdek, tarbiyaning o‘ziga xos o‘rni ilmiy asoslangan. Divergent tafakkur ijodiy fikrlash, yangicha yondashuv va muammoli vaziyatlarni samarali hal qilishda muhim omil sifatida baholanadi. Tarbiya esa ushbu tafakkurni shakllantirishda insoniy qadriyatlarni singdirish, mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash va ijodiy faoliyatga rag‘batlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada pedagogika va psixologiya fanlari doirasida olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, texnologiya ta’limi jarayonida muammoli o‘qitish metodlari orqali tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: divergent tafakkur, muammoli o‘qitish, tarbiya, ijodkorlik, texnologiya ta’limi, kreativ fikrlash, konvergent tafakkur, moslashuvchanlik, ijodiy yondashuv, erkinlik, variantlilik, innovatsion texnologiyalar.

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ПРОБЛЕМЕ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В статье научно рассматриваются педагогические и психологические основы проблемного обучения и роль образовательного процесса в развитии дивергентного мышления учащихся. Дивергентное мышление развивает способность человека к поиску творческих, самостоятельных и нестандартных решений. Проблемное обучение, в свою очередь, способствует развитию у учащихся самостоятельности в получении знаний, творческой активности и инициативности. Образование является неотъемлемой частью этого процесса, формируя личностные качества, моральные ценности и социальную ответственность. В статье подробно анализируются возможности формирования дивергентного мышления учащихся на примере технологического образования.

Научно обоснованы педагогические и психологические возможности проблемного обучения, а также особая роль образования в процессе развития дивергентного мышления учащихся. Дивергентное мышление рассматривается как важный фактор творческого мышления, новых подходов и эффективных

решений проблемных ситуаций. Образование, в свою очередь, выступает средством привития общечеловеческих ценностей, поддержки самостоятельного мышления и стимулирования творческой активности в его формировании. В статье на основе исследований, проведенных в рамках педагогики и психологии, освещаются теоретические и практические аспекты усиления образовательного воздействия методов проблемного обучения в процессе технологического образования.

Ключевые слова: дивергентное мышление, проблемное обучение, образование, креативность, технологическое образование, творческое мышление, конвергентное мышление, гибкость, творческий подход, свобода, вариативность, инновационные технологии.

THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN TEACHING STUDENTS THE PROBLEM OF DIVERGENT THINKING

Abstract. This article scientifically highlights the pedagogical and psychological foundations of problem-based learning methods and the importance of the educational process in the process of developing divergent thinking in students. Divergent thinking develops a person's ability to find creative, independent and unusual solutions. Problem-based learning, in turn, enhances students' independent acquisition of knowledge, creativity and initiative. Education is an integral part of this process, serving to form personal qualities, moral values and social responsibility. The article extensively analyzes the possibilities of forming divergent thinking in students using the example of technology education.

The pedagogical and psychological possibilities of problem-based learning, as well as the specific role of education in the process of developing divergent thinking in students, are scientifically substantiated. Divergent thinking is considered an important factor in creative thinking, new approaches and effective solutions to problem situations. Education, in turn, is manifested as a means of instilling human values, supporting independent thinking and encouraging creative activity in the formation of this thinking. The article, based on research conducted within the framework of pedagogy and psychology, highlights the theoretical and practical aspects of enhancing the educational impact through problem-based learning methods in the process of technology education.

Keywords: divergent thinking, problem-based learning, education, creativity, technology education, creative thinking, convergent thinking, flexibility, creative approach, freedom, variability, innovative technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv va innovatsiyalar davrida ta’limning asosiy vazifasi nafaqat tayyor bilimlarni berish, balki talabalarda mustaqil va kreativ fikrlashni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda ***divergent tafakkur*** alohida o‘rin tutadi. Guilford, Torrance, De Bono kabi olimlar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, divergent tafakkur insonning muammolarga bir nechta yechim topish qobiliyati sifatida qaraladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida ham talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirish, innovatsion metodlarni joriy etish va barkamol inson tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasida kreativ fikrlashni shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasida yosh avlodni erkin fikrlaydigan, tashabbuskor va innovatsion yondashuvlarga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan [2].

Shu bilan birga, ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, tarbiya bilan uyg‘unlashishi lozim. Zero, bilim va tarbiya uyg‘unligida shaxs har tomonlama kamol topadi. Ayniqsa, muammoli o‘qitish orqali talabalarda nafaqat intellektual rivoj, balki ma’naviy-axloqiy sifatlar ham shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Divergent tafakkur masalasi psixologiya va pedagogika sohalarida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. J. Guilford (1967) tafakkurni konvergent va divergent shakllarga ajratib, ijodiylikning asosi sifatida divergent fikrlashni asoslab berdi. Torrance (1990) esa kreativlik testlarini ishlab chiqib, talabalarning ijodiy salohiyatini o‘lchash metodlarini taklif etdi.

Vygotskiy (1978) ta’lim va tarbiyaning shaxs rivojlanishidagi o‘rnini alohida ta’kidlab, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini ilmiy asoslab berdi. Davydov (1996) esa muammoli o‘qitish nazariyasida talabaning mustaqil izlanish faoliyati va ijodkorlikni shakllantirish mexanizmlarini yoritib berdi.

O‘zbekistonlik mutafakkir va olimlar ham bu yo‘nalishga katta hissa qo‘shgan. Avloniy (1913) o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyaning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni haqida so‘z yuritgan. So‘nggi yillarda Sharipov (2015), To‘raqulov (2018) kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ta’lim va tarbiya integratsiyasida muammoli metodlardan samarali foydalanish masalalariga bag‘ishlangan.

Shu asosda aytish mumkinki, talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirishda ***muammoli o‘qitish*** va ***tarbiya*** bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Tadqiqot quyidagi metodologik asoslarda olib boriladi:

- Falsafiy asos: dialektik yondashuv — ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning uzluksiz rivojlanishi; gumanistik falsafa — inson shaxsini markazga qo‘yish [Maslow, 1970].

- ✓ **Psixologik asos**: Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi; Guilfordning intellekt nazariyasi.
- ✓ **Pedagogik asos**: muammoli o‘qitish nazariyasi (M. I. Maxmutov, A. Matyushkin); ta’lim va tarbiya integratsiyasi konsepsiyasi.
- ✓ **Tadqiqot metodlari**: adabiyotlarni tahlil qilish, tajriba-sinov ishlari, kuzatish, anketalash va statistik tahlil.
- ✓ **Yondashuvlar**: shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va innovatsion yondashuv.

Divergent tafakkur va uning ilmiy asoslari. Divergent tafakkur – bu insonning biror muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, noodatiy yechimlarni topish va bir nechta variantlarni ishlab chiqish qobiliyatidir.

Amerikalik olim J. Guilford (1956) tafakkurni **konvergent** va **divergent** turlarga ajratgan. Konvergent tafakkur mavjud bilimlar asosida yagona yechimga olib kelsa, divergent tafakkur bir nechta variantlarni ko‘rib chiqish imkonini beradi [3].

Divergent tafakkur – bu muammoga bir emas, balki bir nechta yechimlarni topishga yo‘naltirilgan fikrlash jarayonidir. Psixolog A. Guilford ta’kidlaganidek, ijodiy tafakkurning asosi – fikrlarning erkinligi va alternativ variantlarni yaratish qobiliyatidadir. Talabalarda bu ko‘nikmalarni shakllantirish ularni mustaqil, ijodkor, tashabbuskor bo‘lishga undaydi. Shuningdek, talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantirish orqali ularning kasbiy kompetensiyasi mustahkamlanadi.

E. Torrance esa (1966) kreativ fikrlash testlarini ishlab chiqib, unda divergent tafakkurni baholash mezonlarini (egiluvchanlik, originallik, tezkorlik, to‘liq ifoda qilish) belgilab berdi [4].

Psixologiyada divergent tafakkur quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: *moslashuvchanlik* – vaziyatga mos yangi yechimlarni topish, *original yondashuv* – noodatiy va takrorlanmas fikrlar yaratish, *ijodkorlik* – yangilik kiritish va kashfiyot qilish qobiliyati, *keng qamrovli fikrlash* – turli variantlarni bir vaqtning o‘zida ko‘rib

chiqish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida aynan shu xususiyatlarni rivojlantirish dolzarbdir.

Muammoli o‘qitishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari. *Muammoli o‘qitish* – bu o‘quvchilarni faol bilim olish jarayoniga jalb etish usuli bo‘lib, unda o‘qituvchi tomonidan maxsus muammoli vaziyatlar yaratiladi. Talaba muammoni hal qilish jarayonida izlanadi, tahlil qiladi va yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Bunda talabaga tayyor bilim berilmaydi, balki savollar, bahslar, vaziyatli topshiriqlar orqali mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi. Bu jarayon divergent tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli o‘qitishning asosiy afzalligi shundaki, talaba bilishga qiziqadi, izlanadi va o‘z fikrini himoya qilishga odatlanadi. Bundan tashqari talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, bilimlarni ijodiy qo‘llash imkonini yaratadi, motivatsiyani kuchaytiradi va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratadi.

Masalan, texnologiya ta’limida muammoli o‘qitish loyihaviy ishlar orqali samarali qo‘llanadi. Talabaga “Qanday qilib maishiy chiqindilarni qayta ishlash asosida yangi mahsulot yaratish mumkin?” kabi savollar berilganda, u bir nechta variantni ishlab chiqadi. Shu jarayonda u nafaqat ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, balki ekologik madaniyat, iqtisodiy fikrlash va mehnat tarbiyasini ham egallaydi [5].

Tarbiyaning divergent tafakkur rivojida tutgan o‘rni. Tarbiya – shaxsni ma’naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan shakllantirish jarayonidir. Divergent tafakkur esa faqat bilim orqali emas, balki tarbiya orqali ham rivojlanadi. Chunki tarbiyalangan talaba ijodkorlikni jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladi. Bundan tashqari tarbiya – nafaqat axloqiy qadriyatlarni singdirish, balki fikrlash jarayoniga ham ta’sir etuvchi kuchdir. Muammoli o‘qitishda tarbiya sabr-toqat, mehnatsevarlik, izlanishga tayyorlik kabi jihatlarni rivojlantiradi. Jamiyat qadriyatlariga mos holda ijodiy fikrlashni yo‘naltiradi, jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilishni o‘rgatadi.

Texnologiya fanida loyihaviy topshiriqlarni muammoli vaziyat asosida bajarish nafaqat tafakkurni, balki mas’uliyat va ijtimoiy faollikni ham tarbiyalaydi. Texnologiya fanida qo‘llaniladigan amaliy topshiriqlar talabalarda ijodkorlikni kuchaytiradi. Masalan: “Mahsulot ishlab chiqish” topshirig‘ida talaba muammoni hal etishda turli variantlarni ishlab chiqadi, ekologik, iqtisodiy va estetik omillarni hisobga oladi. Bu jarayon ularni ijodiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, shuningdek, mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi.

Tarbiya va muammoli o‘qitish integratsiyasi talabaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik psixologiyada qayd etilishicha, muammoli vaziyatlarda o‘qitish stressni kamaytirib, ijodiy jarayonni faollashtiradi. Bunda tarbiyachi-ustozning shaxsiy namunasi ham muhim: talaba o‘qituvchidan ijodiy yondashuv va axloqiy fazilatlarni o‘zlashtiradi.

Tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi. Bular talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ularni ijtimoiy mas’uliyat va burchni anglatish, jamoadorchilik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqillik va tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash.

Agar muammoli o‘qitish jarayonida tarbiyaviy yondashuv qo‘llanilmasa, ijodiy fikrlash individual manfaatlarga yo‘naltirilishi mumkin. Shu sababli, tarbiya divergent tafakkurni ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradi [6].

Texnologiya ta’limida divergent tafakkur va tarbiyaning uyg‘unlashuvi. Texnologiya ta’limi talabalarda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda muammoli o‘qitish metodlari keng qo‘llanilib, talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi.

Masalan, “Milliy libos dizayni” mavzusida talabalarga muammoli topshiriq beriladi: “Qanday qilib milliy libos elementlarini zamonaviy modaga moslashtirish mumkin?” Talabalar turli variantlarni ishlab chiqadi, loyihalar yaratadi va amaliyotda

sinab ko‘radi. Shu orqali ular nafaqat ijodkorlikni, balki milliy qadriyatlarni qadrlashni, estetik didni ham rivojlantiradilar [7].

Pedagogik-psixologik imkoniyatlar va xorijiy tajribalar. Divergent tafakkurni rivojlantirishda psixolog olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Masalan: ***Vygotskiy:*** o‘qitish va tarbiya o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiradi. ***Piaget:*** shaxs rivojlanishi muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali amalga oshadi. ***Dewey:*** ta’lim jarayoni tajriba asosida qurilishi kerak.

Xorijiy tajribada kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun loyiha asosida ta’lim (Project-based learning), dizayn fikrlash (Design thinking), STEM va STEAM yondashuvlari keng qo‘llanmoqda [8].

Amaliy tavsiyalar va metodik ko‘rsatmalar. Talabalarda divergent tafakkurni muammoli o‘qitish asosida rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish mumkin: har bir darsda muammoli vaziyatlar yaratish, talabalarga mustaqil izlanish topshiriqlarini berish, loyiha asosida ta’limni keng qo‘llash, tarbiyaviy maqsadlarni muammoli topshiriqlarga singdirish, jamoaviy ishlarga e’tibor qaratish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, divergent tafakkur – bu shaxsning ijodiy rivojida hal qiluvchi omil bo‘lib, uni rivojlantirishda muammoli o‘qitish metodlari va tarbiya jarayoni uyg‘unlashishi zarur. Talabalarda ijodkorlikni shakllantirish bilan birga, ularni ijtimoiy mas’uliyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslar etib tarbiyalash – zamonaviy ta’limning asosiy vazifasidir.

Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirishda muammoli o‘qitish samarali vosita hisoblanadi. Ammo ushbu jarayonning muvaffaqiyati tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina to‘liq natija beradi. Tarbiya orqali talabalarda insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar, mas’uliyat, hamkorlikka tayyorlik shakllanadi. Shunday ekan, oliy ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish metodlari tarbiya bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Guilford J. P. Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow. Journal of Creative Behavior, 1967.
4. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington, MA: Personnel Press, 1966.
5. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933.
6. Amabile T. Creativity in Context. Boulder, CO: Westview Press, 1996.
7. Sternberg R., Lubart T. Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity. New York: Free Press, 1999.
8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1913.
9. Sharipov Sh. Muammoli o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2015.
10. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
11. Rajabova D. A. “Texnologiya ta’limida innovatsion yondashuvlar”. – Termiz, 2022.
12. Shomirzayev M. X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDPU, 2020.